

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

THE SCHOLARSHIP

SO‘Z BIRIKMASI VA IBORANING FARQLI TOMONLARI

Abduvaliyeva Nozimaxon

Rahimova Feruza

Kejayeva Nodira

Jizzax davlat pedagogika
universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola so‘z birikmasi, uni aniqlash usullari, so‘z birikmasi va iboraning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlashga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: nominat, turg‘un bog‘lama, lug‘aviy birlik, sintaktik, frazema.

“Hozirgi o‘zbek tilining sintaktik qurilishini o‘rganish sintaktik qurilishda ishtirok etuvchi sintaktik figuralarni tadqiq qilish tilshunoi olimlarning doimiy e‘tiborida bo‘lib kelgan”. Gap ma‘lum bir tilning qonun-qoidalariga ko‘ra shakllangan bo‘ladi. U fikr ifodalaydi. Insonlar muloqot jarayonida gapdan foydalanadi. Gap so‘z, so‘z birikmalari, iboralardan tashkil topadi:

Anvar badiiy

kitoblarni sevib mutolaa qiladi. Ushbu gap quyidagi so‘z birikmalaridan iborat:

sevib mutolaa qiladi, kitoblarni mutolaa qiladi. Yana bir misol: *Bayramda Mehribon, Nazokat, Noilalar qizil ko‘ylak kiydilar.*

Ega va kesimlar ajratiladi (*Mehribon, Nazokat, Noilalar, kiydilar*)

Qolgani mustaqil so‘zlar sanaladi (3ta: *bayramda, qizil, ko‘ylak*) 3 ta so‘z birikmasi bor: *ko‘ylak kiydilar, qizil ko‘ylak, bayramda kiydilar.*

So‘z birikmasi – gapning bir qismini tashkil etuvchi so‘zlar guruhi. Bir ibora to‘liq fikrni yoki boshqa ma‘noni ifoda eta olmaydi, lekin gapning qismlari sifatida ishlatilishi mumkin. Ismli iboralar, fe‘lli iboralar, sifatdoshli iboralar, ergash gapliiboralar va boshqalar kabi har xil turdagi iboralar mavjud. Hozircha ikki xil iborani ishlataylik. Bu otlar va fe‘l iboralari. Ismli iborada jumlaning predmeti, masalan,

qizaloq, o‘sha erkak va boshqalar mavjud. Fe‘lli iborada predikat mavjud. Masalan, muzqaymoq yeydi. Agar siz diqqat bilan qarasangiz, ot yoki fe‘l iborasi yakka holda to‘liq ma‘no bera olmasligini ko‘rasiz. Buning sababi, o‘quvchiga to‘liq ma‘noni tushunish uchun etarli ma‘lumot bera olmaydi. Gapda so‘z birikmalaridan tashqari iboralar ham qo‘llanadi. Lekin ularning farqli jihati iborada so‘zlar ma‘noviy butunlik uchun birlashgan, yaxlitlangan bo‘ladi va bir leksik ma‘noni anglatadi; so‘z birikmasida so‘zlar o‘zaro erkin bog‘langan bo‘ladi, ma‘lum bir tushunchani ifodalaydi.

Turg'un bog'lama (ibora)ga bir so'z sifatida qaraladi, lug'atlarda so'zlar qatorida beriladi, ikki va undan ortiq so'zlardan tarkib topgan lug'aviy birlik hisoblanadi. Chunki ular ham so'zlar kabi ma'no ifodalaydi. Masalan, Xamirdan qil sug'urganday iborasi "osonlik bilan", "qiyinchiliksiz" ma'nosini, ko'ngil bermoq iborasi "sevmoq" ma'nosini, qo'y og'zidan cho'p olmagan iborasi

"yuvosh", ko'zini yog' bosgan iborasi – "mag'rurlangan", yog' tushsa yalaguday iborasi – "toza", to'nini teskari kiyib olmoq iborasi – "qaysarlik qilmoq" ma'nolarini beradi. Iboraning ma'nosi so'z kabi oddiy holda emas, obrazli umumlashma va ko'chma tarzda bo'ladi. So'z birikmasidagi so'zlarni, erkin bog'langani uchun, boshqa so'zlar bilan almashtirish mumkin, turg'un bog'lama (iboralar)dagi so'zlarni almashtirib bo'lmaydi, ular bir ma'no ifodalash qonuniyati asosida turg'unlashgan,

yaxlitlangan bo'ladi: bo'yniga qo'ymoq (iqror qilmoq), ko'nglidan o'tkazmoq (o'ylamoq), o'pkasi yo'q (hovliqma) kabi. So'z birikmasi va turg'un bog'lanma gapda o'xshash shaklda uchrashi

mumkin, lekin so'z birikmasi tushuncha, turg'un bog'lanma leksik ma'no ifodalaydi.

Qiyoslaymiz:

Bu yuk hozircha omborning ichiga sig'maydi. (tushuncha)

Shu kunlarda Hulkarning sevinchi ichiga sig'maydi(leksik ma'no)

Frazeologizmlar, so'z birikmasi formasidagi nominait birliklar – terminlar, toponimlar; ergash va teng birikmalar, mustaqil va yordamchi so'zlarning qo'shiluvidan paydo bo'lgan so'z birikmalari deb ataydi. Ma'lumki, so'z birikmasi tarkibidagi so'zlar o'z leksik ma'no mustaqilligini saqlagan bo'ladi.

Ibora tarkibidagi so'zlar esa o'z leksik ma'nosi bilan qatnashmaydi, ma'nosini yo'qotgan bo'ladi. Misol uchun, ko'nglidan o'tkazmoq iborasidagi o'tkazmoq so'zi o'z leksik ma'nosini yo'qotgan, ko'nglidan biror narsani, nimanidir o'tkazish tushunilmaydi. Erkin bog'lanish so'z birikmasini, turg'un bog'lanish esa frazeologizmlarni o'z ichiga oladi. Erkin bog'lanish sintaksisning, turg'un bog'lanish

frazeologiyaning tekshirish obyekti hisoblanadi. **Solishtiring:** 1) qozonning ichi qora, 2) Nazokatning ichi qora. Sintaktik so'z birikmalari frazeologik birikmalardan quyidagi xususiyatlari

bilan farq qiladi:

1) sintaktik so'z birikmalari ma'lum so'z birikmasi modeli asosida nutq jarayonida hosil bo'ladi. Shuning uchun ham real sintaktik so'z birikmalari nutq birliklari sanaladi. Frazeologik birliklar esa nutq jarayonigacha tayyor holda mavjud bo'ladi. Nutqqa tayyor holda bir lug'aviy birlik sifatida olib kiriladi;

2) sintaktik soʻz birikmalarida qismlarning sintaktik aloqasi erkin, frazeologik birikma kesimlari oʻrtasidagi sintaktik aloqa turgʻun boʻladi;

3) sintaktik soʻz birikmalari qismlari gap ichida alohida-alohida gap boʻlaklari boʻlib keladi. Frazeologik birikma qismlarining grammatik munosabati faqat shu birikma ichida amal qiladi. Frazeologik birikma bir butun sifatida gap ichida bir gap boʻlagi oʻrnida keladi: Iboraning soʻz birikmasidan yana bir farqi u soʻz birikmasi kabi har gal nutqning oʻzida yuzaga kelmaydi. Ibora xuddi soʻz kabi nutqqa tayyor holda kiradi. Shu sababli ham uning ikkinchi nomi turgʻun bogʻlama hamdir. Masalan,

aravani quruq olib qochmoq, tirnoq ostidan kir qidirmoq, tomdan tarasha tushganday. Qismlarining erkin yoki bogʻliqligiga koʻra soʻz birikmalari erkin va bogʻliq birikmalarga boʻlinadi. Erkin birikma qismlari oson boʻlinadi, bogʻliq soʻz birikmalari qismlari oʻzaro zich aloqaga kirishib, gapda bir gap boʻlagi oʻrnida keladi. Bunday birikmalar frazeologik birikmalarga yaqin keladi, lekin sintaktik

aloqaning saqlanishi bilan frazeologizmlardan farqlanadi.

Solishtiring:

- 1) yoqimli musiqa, musiqani tinglamoq – erkin soʻz birikmalari;
- 2) ikki lola, bir qancha gul – bogʻlik soʻz birikmalari;
- 3) koʻngli ochiq, ogʻzi qulogʻida – frazeologik birikmalardir.

Har bir soʻz birikmasi mazmuniy yaxlitlik va grammatik jihatdan shakllanish xususiyatiga ega. Soʻz birikmasidan farqli ravishda boshqa barcha birikuvlar soʻzning kengayishi hisoblanadi. Biz nutqimizda iboralardan tez-tez foydalanamiz. Misol uchun, ranjitmoq soʻzi oʻrniga arpasini xom oʻrmoq iborasi orqali va yana: xursand boʻlmoq soʻzi oʻrniga boshi osmonga yetmoq iborasini ishlatishimiz mumkin. Bu holda esa nutqiy taʼsirchanlik ortishi aniq. Biroq bu jarayonda mustaqil soʻz oʻrniga sintaktik qurilmadan foydalanamiz. Bu esa, oʻz navbatida, yagona soʻz bilan berilishi mumkin boʻlgan maʼno ifodasining bir necha soʻzning oʻzaro munosabatga kirishuvi orqali berilayotganini koʻrsatadi. Soʻzning ifodaviy tomonini tovushlar tashkil etsa, iboraning ifoda tomonini esa soʻzlar tashkil etadi.

Qiyoslang: Farzand – koʻzining oq-u qorasi, ulugʻlamoq –koʻkka koʻtarmoq.

Frazeologizmlarning eng asosiy belgilari sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin: frazemaning tarkibida ikki yoki undan ortiq leksema qatnashgan boʻladi; frazema yaxlit bir lugʻaviy maʼnoni ifodalaydi; frazemaning tarkibidagi soʻzlar oʻz leksik maʼnolarini yoʻqotgan boʻladi; frazema turgʻun birikma sifatida erkin birikma bilan faqat omonimik holatda boʻladi; frazemani faqat yaxlitligicha

almashtirish mumkin; frazema gapning tarkibida yaxlitligicha bir sintaktik vazifada keladi; frazemani boshqa tilga so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi, yaxlitligicha tarjima qilinadi

Quyida ingliz va o'zbek tilidagi turg'un birikmalarni muqobillashtirishni ba'zi misollar orqali ko'rib

chiqamiz.

A drop in the ocean – deyarli ta'sir qilmaydigan, juda kam miqdor. Bu ibora tarjima qilinganda “okeandan bir tomchi” degan ma'noni bildirib, o'zbek tilidagi “dengizdan tomchi”, “xamir uchidan patir” frazemalari bilan bir xil ma'no ifodalaydi va ular bilan mazmunan sinonim bo'ladi. Bu ibora gap tarkibida boshqa so'zlar bilan semantik va grammatik jihatdan to'laqonli birikadi, ya'ni o'zbektilidagi “xamir uchidan patir”, “dengizdan tomchi” frazemalari o'rnida erkin qo'llana oladi.

The cost of a hotel for one night is a drop in the ocean for a big company

like that – bir kechalik mehmonxona narxi bu kabi kompaniyalar uchun dengizdan tomchi/ xamir uchidan patir(dir).

A leopard can't change its spots – bu ibora xulq-atvor va xarakterini hech qachon o'zgartira olmaslikni ifodalashda foydalaniladi, tarjima qilinganda “leopard (qoplon) o'z dog'larini o'zgartira olmaydi” degan ma'noni ifodalaydi, o'zbek tilida “bukrini go'r tuzatadi” maqoliga mazmunan yaqin bo'lib, grammatik qurilishi farq qiladi.

Xulosa shuki, Quvonarlisi, yosh tadqiqotchilarimiz o'zbek va ingliz tili iboralari o'rtasidagi farqlari haqida o'z izlanishlarini olib borishmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Siddiqova Sh. O'zbek tilshunosligida o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarning o'rganilishiga doir “Izlanish samaralari” 2011. B-26.
2. Masharipov M. Ona tili (Ma'ruzalar to'plami) Abituriyentlar uchun qo'llanma. Xorazm – 2017.